



O'ZBEKISTONDA YASHIL INVESTITSIALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Rixsiboyev Durbek
Ulug'bek o'g'li

Drenix Business MCHJ direktori
E-mail: dave.rikhs@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekistonda yashil investitsiyalarni rivojlantirishning zamonaviy holati, asosiy yo'nalishlari va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, ekologik toza ishlab chiqarish, yashil infratuzilma hamda resurslarni tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yashil investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari resurslari, davlat-xususiy sheriklik va yashil obligatsiyalarning o'rni yoritilgan. Tahlil natijalari O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya salohiyatidan foydalanish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida investitsiya faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yashil loyihalarni moliyalashtirishning uzoq muddatli mexanizmlarini rivojlantirish, xususiy kapitalni jalb qilish, yashil moliya instrumentlarini kengaytirish va investitsiya loyihalarining ekologik samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish zarurligi asoslangan. Tadqiqot yakunida O'zbekistonda yashil investitsiyalar hajmini oshirish va ularning iqtisodiy hamda ekologik samaradorligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil investitsiyalar, yashil iqtisodiyot, yashil moliya, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik investitsiyalar, energiya samaradorligi, yashil obligatsiyalar, xorijiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, investitsiya loyihalarini.

Yashil investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladigan investitsiyalarni anglatadi. Jahon amaliyotida yashil investitsiyalar qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini boshqarish, ekologik transport va yashil infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu sababli yashil investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha institutsional asoslar bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. Xususan, 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilinishi ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi [1]. Mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini kengaytirish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va yashil moliyalashtirish tizimini shakllantirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilangan.

Prezident qaroriga muvofiq, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlarini 15 GVtga yetkazish, elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 30 foizdan yuqori darajaga olib chiqish, YAIM birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 35 foizga kamaytirish hamda iqtisodiyotning energiya sig‘imini 30 foizga qisqartirish vazifalari belgilangan [2].

1-jadval.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot bo‘yicha 2030-yilgacha belgilangan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Joriy holatga nisbatan maqsad	Muddat
Qayta tiklanuvchi energiya quvvati	15 GVt	2030
Elektr energiyasi ishlab chiqarishida YEM ulushi	30 % dan ortiq	2030
YAIM birligiga issiqxona gazlari emissiyasi	-35%	2030
Energiya sig‘imi	-30%	2030
Sanoatda energiya samaradorligi	20%	2030
Suv tejoychi texnologiyalar joriy etiladigan maydon	1 mln gektar	2030

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” bo‘yicha qarorlari va Invest Uzbekistan ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur maqsadlarga erishishda investitsiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, energetika sektori yashil investitsiyalarning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekiston dunyodagi quyosh energiyasi salohiyati yuqori mamlakatlardan biri bo‘lib, yiliga o‘rtacha 300 kundan ortiq quyoshli kunlarga ega. Shu sababli quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurishga katta hajmdagi investitsiyalar jalb qilinmoqda [3]. So‘nggi yillarda BAAning Masdar, Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyalari va boshqa xalqaro investorlar ishtirokida yirik yashil energetika loyihalari amalga oshirilmoqda. Invest Uzbekistan ma‘lumotlariga ko‘ra, ACWA Power tomonidan Qoraqalpog‘istonda Markaziy Osiyodagi eng yirik 5 GVt quvvatga ega shamol energetikasi loyihasini amalga oshirish bo‘yicha kelishuv imzolangan.

Yashil investitsiyalar faqat energetika bilan cheklanmaydi. Mamlakatda suv tejoychi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, yashil transport va ekologik qurilish yo‘nalishlariga ham investitsiyalar yo‘naltirilmoqda. 2025-yilgi davlat dasturiga muvofiq, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, metan emissiyasini kamaytirish, yashil qurilish standartlarini joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya

ulushini oshirish bo'yicha qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. 2025-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 26 foizga, ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida esa 40 foizga yetkazish vazifasi belgilangan [4]. Buning uchun 4,5 GVt yangi quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Yashil investitsiyalarni moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining o'zni ham katta. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda BMT taraqqiyot dasturi O'zbekistonda yashil iqtisodiyot loyihalarini qo'llab-quvvatlamogda. Xususan, 2025-yildan boshlab yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro grantlar va imtiyozli kreditlarni keng jalb qilish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda [5].

2-jadval.

O'zbekistonda yashil investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari

Yo'nalish	Kutilayotgan natija
Quyosh energetikasi	Elektr energiyasi ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish
Shamol energetikasi	Uglerod emissiyasini kamaytirish
Gidroenergetika	Energiya xavfsizligini mustahkamlash
Energiya tejankor texnologiyalar	Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish
Suv tejovchi texnologiyalar	Suv resurslaridan samarali foydalanish
Chiqindilarni qayta ishlash	Ekologik holatni yaxshilash
Yashil qurilish	Energiya iste'molini qisqartirish
Ekologik transport	Atmosfera ifloslanishini kamaytirish

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyot" bo'yicha qarorlari va Invest Uzbekistan materiallari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shu bilan birga, yashil investitsiyalarni rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Birinchidan, yashil moliya instrumentlari bozori hali yetarli darajada rivojlanmagan. Ikkinchidan, ekologik loyihalarning uzoq muddatli xarakterga ega bo'lishi investorlar uchun qo'shimcha risklarni yuzaga keltiradi. Uchinchidan, ayrim tarmoqlarda energiya tejankor texnologiyalar va ekologik standartlarni joriy etish uchun katta boshlang'ich kapital talab qilinadi. To'rtinchidan, yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha milliy metodologiyalarni takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu sababli yashil obligatsiyalar bozori, uglerod birliklari savdosi, yashil kreditlash va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda yashil investitsiyalarni rivojlantirish uchun zarur institutsional va normativ-huquqiy asoslar shakllanib bormoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, suv tejovchi texnologiyalar va ekologik infratuzilmaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Kelgusida yashil moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish, xalqaro moliyaviy resurslarni faol jalb etish, xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish va yashil texnologiyalar transferini kuchaytirish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash hamda ekologik xavflarni kamaytirish mumkin bo'ladi. Bu esa O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish va 2030-

yilgacha belgilangan strategik maqsadlarga erishish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘tishni ta’minlash dasturi to‘g‘risida”, 02.12.2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘tishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar. 2022-yil.
3. Investment Promotion Agency of the Republic of Uzbekistan. Energy sector of Uzbekistan. Tashkent, 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025-yil — Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili doirasidagi davlat dasturi. Toshkent, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Electricity production from renewable energy sources. SIAT statistik ma’lumotlar bazasi, 2020–2025.